



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

30-
sentyabr
2024-yil
dushanba

№4-5(33)

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

Institutimizda 2024/2025-o'quv yiliga bag'ishlangan "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida "Talabalikka bag'ishlov" nomli tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Oliygo'ri rektori, professor Akmal Sidikov mazkur tadbirni ochib berib, talaba-yoshlarga samimiy tabrigini yo'lladi. Ularning ishlariga omad va zafarlar tiladi. Barchani oliygohimiz erishgan yutuqlari bilan tanishtirdi.

Tadbir davomida «Rektor stipendiyasi» sohiblariga maxsus guvohnomalar va esdalik sovg'alari taqdim etildi. Shuningdek, 2024/2025-o'quv yili qabulidagi test sinovlarida eng yuqori ballni qo'lga kiritgan talabalarga ramziy talabalik guvohnomasi tantanali ravishda topshirildi.

«Talabalikka bag'ishlov» marosimi jozibador raqslar va go'zal kuy-qo'shiqlarga ulanib ketdi.



Tanishing, «Rektor stipendiyasi» sohiblari!



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2022-yildan buyon, iqtidorli talabalar uchun "Rektor stipendiyasi" tanlovi o'tkazib kelinadi. Stipendiya institutning barcha yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun ta'sis etilgan. Shu kungacha oliygohimizda tahsil olgan va o'qiyotgan 45 nafar talabalar

nominatsiyalar bo'yicha g'olib bo'lishgan. Yaqinda 2024/2025 o'quv yili uchun yangi stpendiantlar e'lon qilindi.

Ular «Eng a'lochi talaba», davolash ishi fakulteti 5-bosqich talabasi Umrbek Axmadjonov, «Eng yuqori ilmiy natijaga erishgan talaba», davolash ishi fakulteti

4-bosqich talabasi Humoyunmirzo G'anijonov, «Eng a'lochi talaba», pediatriya fakulteti 1-bosqich talabasi Ruxshona Iminoxunova va «Eng faol targ'ibotchi talaba» davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi Inoyatxon Aliyevlardir. Barcha talabalarga o'qishlarida muvafaqiyatlar tilab qolamiz.

FARG'ONADA YASHASH O'ZI BAXT!



She'r muallifi
Shokirjon NORMAHAMADOV,
institut axborot xizmati
rahbari. Jamoatchilik bilan
aloqalar mutaxassisi.

Anorlaring maqtab yozishdi,
Minorlaring maqtab yozishdi.
Lek o'zingsan tildan zo'r taxt,
Farg'onada yashash o'zi baxt!

Farg'onada yashab baxtliman,
Nurlardayin bu joy yorug'dir.
Temurdayin endi shaxdliman,
Qondoshimday bu so'z ulug'dir.

Shu so'z bilan o'syapman birga,
Iliq so'zdan quvna baxtliman!
Bu so'z xadsiz tenglamay qirga,
Cho'lida ham o'ynab yashayman.

Vatan — o'zi baxtning timsoli,
Baxt ichida yashayapmiz biz.
Ko'kda uchgan oqqush misoli,
Baxtdan sarxush bugun o'g'il-qiz.

XALQARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH, TAJRIBA ALMASHISH VA INNOVATSION YANGILIKLAR OLIB KIRISH BUGUN HAR BIR SOHA UCHUN MUHIM AHAMIYAT KASB ETMOQDA.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rektori, professor Akmal Sidikov boshchiligidagi delegatsiya AQSHda xizmat safarida bo'lib qaytdi. Unda turli uchrashuvlar bo'lib o'tdi va yevropalik soha mutaxassislari bilan o'zaro tajriba almashib, AQSHning nufuzli Franklin universiteti bilan hamkorlik memorandumini imzolashga muvaffaq bo'ldilar.



AQSHning Rosalind Franklin tibbiyot va fan universiteti bilan imzolangan ushbu qo'shma ta'lim dasturi "Hamshiralik ishi 1+1", "Tibbiyotda axborot texnologiyalari 1+1", "Sog'liqni saqlash bo'yicha doktorantura" yo'nalishlarida sifatli tibbiy ta'limning salmog'ini oshirishga qaratilgan.

—Endilikda O'zbekistonda hamshira diplomiga ega bo'lgan talabgor bir yil Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida va bir yil Franklin tibbiyot universitetida tahsil olishlari mumkin,—deydi A.Sidikov. —Imtihonlarni

HAMSHIRALAR AQSHDA O'QIB, ISHLASHI MUMKIN

muvaffaqiyatli tamomlagan hamshiralarga AQSH hukumati tomonidan Green Card beriladi va ushbu davlatda ishlashga ruxsat beriladi.

AQSHda ishlash uchun hamshiralarni tayyorlash bo'yicha dasturning birinchi guruhi 2025-yil yanvar oyidan boshlanishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, ushbu kelishuvdan sog'liqni saqlashda boshqaruv, USMLE imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish uchun qishki va yozgi kurslarni tashkil etish o'rin olgan.

YANGI LOYIHALAR, YANGI NATIJALAR SARI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan «Estetik konsult» MCHJ bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi.



Tadbirida tibbiyot yo'nalishdagi «Estetik konsult» tashkiloti mutasaddilari Mixael Favazovich, Kira Kim, Nikita Vladislavovich hamda institutimizning barcha prorektorlari, Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i, Davolash ishi fakulteti dekani hamda Ilmiy bo'lim boshlig'i ishtirok etdi.

Memorandumdan ko'zlangan maqsad — o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, sohadagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, sog'liqni saqlash bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish hamda ilmiy-tadqiqot institutini birgalikda tashkil etish edi.

Sh.NORMAHAMADOV.

BAALIK TALABA VA SHIFOKORLAR BIZDA O'QIYDI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida Birlashgan Arab Amirliklarining Gulf medical university hamkorligida "Doctor of medicine" (terapiya) mutaxassisligi bo'yicha 4 yillik magistratura qo'shma ta'lim dasturi tashkil etildi.

Ikki oliy ta'lim muassasalari rektorlari tomonidan imzolangan hamkorlik shartnomasiga ko'ra, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun mahorat darslari o'tkazish, malaka oshirish kurslariga universitetdan yuqori malakali o'qituvchilar, olimlarni faol jalb etish ko'zda tutilgan.

Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kelishilgan holda

tasdiqlangan qabul kvotasida "Doctor of medicine" mutaxassisligi bo'yicha Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2024-2025 o'quv yilidan 100 nafar bakalavr darajasiga ega BAALik fuqaroni magistratura ta'lim dasturida o'qitish rejalashtirilgan.

Bunda magistrlar 1-2-bosqichda "Problem based learning", 3-4-bosqichda esa "Workplace-Based Learning" ta'lim texnologiyalari asosida o'qitiladi.

Ta'lim dasturi Buyuk Britaniyaning "The Quality Assurance Agency for Higher Education" tashkiloti tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi va bitiruvchilar butun dunyoda tan olinadigan xalqaro diplomga ega bo'ladi.

Ahamiyatli jihati, tibbiyotning "Doctor of medicine" yo'nalishida magistratura qo'shma ta'lim dasturi asosida o'qitish O'zbekistonda birinchi marta Farg'ona

jamoat salomatligi tibbiyot institutida yo'lga qo'yilmoqda.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, 2023 yilda mazkur institut THE (Times Higher Yeduction) reytingining Impact ranking yo'nalishida TOP-1000, "Round University Ranking – RUR" xalqaro reytingida esa TOP-900 ta OTmlar qatoridan joy oldi.

O'tgan yili institutning "Davolash ishi" ta'lim dasturi ECAQA (Eurasian Senter for Accreditation and Quality Assurance) agentligi tomonidan 5 yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Bugungi kunda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 749 nafar xorijiy talaba tahsil olib, ularga mahalliy mutaxassislar bilan birga Hindiston, Pokiston, Xitoy, Rossiya kabi davlatlardan jalb qilingan 25 nafar chet ellik professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda.



Sahifani S.TURSUNOV tayyorladi.



USHBU SAHIFADA: INSTITUTNING MALAKALI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, TALABALARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLIISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI YORITIB BORILADI.

"SOG'LOM HAYOT" SAHIFASI



TRANSYOG'LAR NIMA VA U NEGA XAVFLI



Xusniddin XOJIMATOV, ovqatlanish, bolalar va o'smirlar gigiyenasi kafedrasida katta o'qituvchisi

— To'yinmagan yog' kislotalarini bu kamchiligi yo'qotish va ularning strukturasini barqarorlashtirish uchun kimyogarlar ularga vodorod atomini bog'lashni o'rganishgan. Bu jarayonga gidrogenizatsiya deyilib, shu tariqa qattiq to'yinmagan yog' kislotalari — margarin, sariyog' paydo bo'lgan.

1981-yili bir guruh olimlarning tadqiqotiga ko'ra, gidrogenlangan moylarni iste'mol qilish yurak kasalliklari xavfini oshirishi aniqlangan. Shundan so'ng yana bir qator ilmiy tekshirishlar

o'tkazilib, quyidagi xulosaga kelingan: «Organizm uchun yog' kislotalarini qaysi ko'rinishda tushayotgani ahamiyatsiz emas. Yog' kislotalari xujayra membranalari va boshqa biologik strukturalarni xosil bo'lishi uchun qurilish materiali hisoblanadi. Agar yog'lar tabiiy emas balki sun'iy sintezlangan trans-shaklga ega bo'lsa — moddalar almashinuviga kirishib keta olmaydi. Bu kabi mutant yog'lar organizmni «axlatga» to'ldirib, salomatlikka salbiy ta'sir etadi».

TRANSYOG'LAR NIMASI BILAN XAVFLI?

Transyog'larning organizmga negativ ta'siri haqida zamonaviy fanga quyidagilar ma'lum, ya'ni transyog'lar:

1. «Zararli» xolesterin miqdorini oshiradi;
2. Infarkt va insult xavfini oshiradi;
3. Qandli diabet rivojlanishiga omil yaratadi;
4. Yallig'lanish jarayonlari; rivojlanishiga zamin yaratadi;
5. Saraton keltirib chiqarishi mumkin.

ISITMA YUQORI BO'LGANDA:

Gripp — bu nafas olish tizimiga ta'sir qiluvchi virusli infeksiya. Uning alomatlariga isitmaning 38°C dan yuqori ko'tarilishi, mushaklardagi og'riq, titroq, terlash, bosh og'rig'i, yo'tal va burun oqishi kiradi. Gripp odatda 4 — 7 kungacha davom etadi, ammo alomatlar bir necha hafta kuzatilishi mumkin. Gripdda shamollagandagi kabi parhezga rioya qilish, tomoq og'rig'ini davolash va immunitet tizimini qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Hech qanday mahsulot shamollash, gripp yoki boshqa kasalliklarni davolay olmaydi. Ammo to'g'ri tanlangan mahsulotlar, suv, kofeinsiz o'tli damlamalar kasallik paytida organizmni tabiiy ravishda qo'llab-quvvatlashga yordam beradi

Isitma ko'tarilganda, organizmning suv balansini normal holatda ushlab turishga e'tibor qaratish zarur. O'tli damlama-choy kabi tanani sovutadigan mahsulotlar va bodring, sitrus mevalari, salat barglari, bulg'or qalampiri, olma va uzum kabi suv miqdori yuqori bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish kerak.

S.TURSUNOV.

GRIPP MAVSUMI BOSHLANDI - NA'MATAK ICHISH VAQTI KELDI!



ShoiraXon MUXIDINOVA, epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi kafedrasida katta o'qituvchisi.

— Yuqumli kasalliklarga qarshi eng yaxshi profilaktika bu — emlashdir. Vaksina grippning ushbu mavsumda eng ko'p uchrashi kutilayotgan va eng xavfli hisoblanayotgan 3-4 ta shtammiga qarshi qaratilgan bo'lib, emlash ushbu shtammlar bilan organizm to'qnash kelganida kasallikdan himoyalashga qaratiladi. O'rganilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, emlanmagan jamoalarda emlangan jamoalarga nisbatan 3-4 baravar ko'p kasallanish

holatlari, shuningdek asoratlar qayd etilgan.

Gripp va boshqa o'tkir respirator infeksiyalar bilan kurashishda kasallikni erta aniqlash, erta tashxis qo'yish va jamoadan alohidalash muhim o'rin kasb etadi. Odam o'zini va atrofdagilarni kasallikdan himoya qilish uchun:

O'tkir shamollash belgilari paydo bo'lganda mustaqil turli dori vositalarini qabul qilmasdan zudlik bilan shifokorga murojaat qilish;

Yo'talganda va aksirganda og'iz va burunni toza dastro'mol bilan berkitish; Bemorlar bilan yonma-yon o'tirmaslik va yaqindan gaplashmaslik;

Jamoat joylarida niqobda bo'lish; ko'chadan kirganda va ovqatlanishdan oldin qo'llari sovuqlab yuvish;

Piyoz va sarimsoq piyoz kabi kabi fitonsidlarni iste'mol qilish;

Tanasini sovqotishdan saqlashi, ayniqsa, kiyim-kechaklarni va oyoqni quruq, issiq tutish;

Mavsum oldidan grippga qarshi

profilaktik emlash olish zarurdir.

Gripp va boshqa o'tkir respirator infeksiyalar bilan kurashishda kasallikni erta aniqlash, erta tashxis qo'yish va jamoadan alohidalash muhim o'rin kasb etadi.

O'tkir shamollash belgilari paydo bo'lganda mustaqil turli dori vositalarini qabul qilmasdan zudlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak.



Gripp mavsumi boshlandi - na'matak ichish vaqti keldi!

Og'zi yopiladigan idishda 2 stakan suv quyiladi va ustiga 1 osh qoshiq maydalangan (danagidan xolos etilgan) mevadan solib, 10 minut davomida qaynatiladi.

So'ngra 1 sutka davomida qo'yiladi. Qaynatma dokada suzib, unga shakar qoshiq shira beriladi. Qaynatmadan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi.

Institutimizda nima gaplar?

DISSERTASIYA ISHI HIMOYA QILINDI

Institut o'qituvchisi **Shaxodat Yadgarov**ning 14.00.07-"Gigiena" ixtisosligi bo'yicha «Aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarning gigienik tavsifi» mavzusidagi tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashida muvaffaqiyatli himoya qilindi. Dissertatsiyaga tibbiyot fanlari doktori, dotsent Aziz Iskandarov ilmiy rahbarlik qilgan.



Shuningdek, oliyoghimizning o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i **Firuzjon Muydinov** va kafedra katta o'qituvchisi **Buzulayho Haydarov**ning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishlari institutimiz huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.09.2020.tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashda 100 foiz natija bilan himoya qilindi.



F.Muydinovning dissertatsiya ishiga pedagogika fanlari doktori(DSc) Irodaxon Iminaxunova, B.Haydarovning dissertatsiya ishiga esa pedagogika fanlari doktori(DSc) Nodirbek Komilovlar ilmiy rahbarlik qilgan.



SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida o'tkaziladigan tanlovlar ro'yxati bormi?

— Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida tanlovlar ko'pincha yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi hamda iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limlari tomonidan tashkil etiladi. Mazkur tanlovlar ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarimiz orqali doimiy e'lon qilinadi.

Ushbu institut xususiyimi?

— Yo'q, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Xalqaro reytinglardan munosib o'rin egallagan davlat oliy ta'lim muassasasi.

Bugungi kunda institut klinikasi bormi?

— Ha, bor. Farg'ona

shahridagi 250 o'rinli 2-son shahar shifoxonasi Farg'ona viloyat hokimining tegishli qaroriga asosan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ko'p tarmoqli klinikasiga aylantirilgan.

Talabalar chet davlatlarga o'qish va amaliyot o'tash uchun yuboriladimi?

— Albatta, bugungi kunda institut dunyoning 40 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan. Unga muvofiq talabalarimiz doimiy ravishda xorijda amaliyot o'tashi mumkin.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida nechta fakul'tet bor?

— Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bugungi kunda 4 ta fakul'tet: Davolash ishi, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, Pediatriya, Xalqaro fakul'tetlar mavjud.

Pediatriya fakul'tetida qaysi yo'nalishlar mavjud?

— Pediatriya fakul'tetida stomatologiya, pediatriya, farmasiya kabi yo'nalishlar mavjud.


Institutning xalqaro miqyosidagi o'rni qanday?

—World University Rankings – 2024 reyting natijalariga ko'ra, ushbu reytingdan Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi 8 ta OTM o'rin olgan. Ulardan biri Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutidir. — Bunda OTMlarning 18 ta indikator asosida 5 ta yo'nalishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari baholangan:

- o'qitish;
- tadqiqot muhiti;
- tadqiqot sifati;
- sanoat;
- xalqaro istiqbollar.

NAZARIY BILIMLAR AMALIYOTDA MUSTAHKAMLANADI

Bugungi kunda tibbiy ta'lim jarayonida talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan bir qatorda, amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy mahoratlarini oshirib bormoqda. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar sog'liqni saqlashning turli yo'nalishlarida o'z malakalarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu mashg'ulotlar ularga kasbiy ko'nikmalarni chuqur o'rganish va turli tibbiy amaliyotlarni puxta egallashda yordam bermoqda.



Shu kunlarda talabalarining faol ishtiroki bilan o'tkazilgan tibbiy amaliy mashg'ulotlar tibbiy muassasalarda o'rganilgan nazariy bilimlarni real hayotdagi tibbiy jarayonlarda muvaffaqiyatli qo'llashga qaratilgan bo'lib, ular kelajakda malakali shifokor bo'lish yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda.

Ushbu mashg'ulot jarayonida ham ovqat hazm qilish fiziologiyasi o'rganilib, bemorlarni parvarish qilish kabi dolzarb mavzular ham qamrab olindi.

Davolash ishi fakulteti talabalari amaliy mashg'ulotlar doirasida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialidagi eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ham tanishdilar.

Ushbu jarayon talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Talabalarimiz shifoxona sharoitida real bemorlar bilan ishlashni o'rganib, kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Shokirjon NORMAHAMADOV.

«Sog'lom Farg'ona» sahifasi

Beshariq tumani markaziy shifoxonasi 3382 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 8 ta davolovchi hamda yordamchi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

– Bugungi kunda tumanimizda bitta markaziy, 8 ta oilaviy poliklinika, 4 ta oilaviy shifokorlik punktlari hamda 41 ta zamonaviy xususiy poliklinikalar xalqimiz salomatligi yo'lida xizmat qilmoqda, – deydi Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Lazizbek Jo'raev. – Tumanimizdagi tibbiyot muassasalarida jami 292 nafar shifokor, 2047 nafar hamshira, 409 nafar ichki tibbiyot xodimi faoliyat ko'rsatmoqda.

Shifokorlarning 89 nafari oliy toifalidir. 2024 yilda markaziy shifoxonaga bemorlarga dori-darmon uchun davlat byudjetidan 7,5 milliard so'm mablag' ajratildi.

Ayni kunda Beshariq, O'zbekiston hamda Furqat tumanlari aholisiga xizmat ko'rsatayotgan perinatal tug'ruq markazi 115 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 6 o'rinli jonlantirish hamda 15 o'rinli nuqson bilan tug'ilgan chaqaloqlar uchun maxsus bo'limlar mavjud.

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bugun yirik tibbiy dargohga aylandi. Bu yerda jami 1 906 nafar tibbiyot xodimlari faoliyat olib boradi. Shundan 404 nafari oliy ma'lumotli shifokorlardir. Ular orasida fan doktori va 8 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritadi.

Shifoxonaning faoliyati yildan-yilga kengayib bormoqda. Joriy yilning birinchi yarmi mobaynida filialga umumiy murojaatlar soni jami 60 940 tani tashkil etdi. Shundan 49 059 nafar murojaatchiga ambulator yordam ko'rsatildi, 11 881 nafar bemorlar stasionar sharoitda davolanish uchun yotqizildi.

Shulardan 3 459 nafar bemorlarda tibbiy amaliyotlar, ya'ni operatsiyalar o'tkazildi. Shu davrda bo'lgan yuqori texnologik operatsiyalar soni 1 643 tani tashkil qiladi. Shuningdek, 71 ta kardioxirurgik operatsiyalar bajarildi.

Har yili tug'ma yurak nuqsoni bilan dunyoga kelgan, yuqori texnologik operatsiyalarga muhtoj o'g'il-qizlarda yurtimizning 8 ta tibbiyot muassasasida kardioxirurgik amaliyotlar bajarib kelinmoqda.

Xususan, 2023 yilda 4 458 nafar bolada (2022 yilda 3

676 nafar) jarrohlik operatsiyasi o'tkazilgan. Ulardan 987 nafari kam invaziv usulda, ya'ni kesmalarsiz bajarilgan. Bolalar o'rtasida onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida joriy yilning besh oyida 219,7 nafari ommaviy, 392,6 nafari selektiv skriningdan o'tkazilib, 239 nafarida kasallik aniqlangan holda, sog'lomlashtirish uchun nazoratga olingan.

Respublikadagi shahar va tuman tibbiyot birlashmalarida bolalar anesteziologiya-reanimasiya bo'limlari va poliklinikalarda bolalar bo'limlari tashkil etilgan.

Qolaversa, barcha "tibbiyot brigadalari" tarkibiga qo'shimcha 20 ming bolalar hamshirasi hamda patronaj-doya lavozimi joriy etilgan. Tuman, (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida "bolalar bo'limlari", "qizlar salomatligi" bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda bolalarga ambulator tibbiy xizmat 2 300 dan ziyod oilaviy poliklinikalar xizmat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 209 ta tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, stasionar yordam esa 13,3 mingta o'ringa ega 245 ta viloyat va tuman darajasidagi hamda 9 ta respublika muassasasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Инсон ва гаджетлар муносабати, онлайн мулоқотнинг салбий жиҳатлари, виртуал қарамлик белгилари

10 yoshgacha bo'lgan bolalarning 41%i doimiy onlayn rejimda;

14 yosh oralig'idagi bolalarning 85%i gadjetlarsiz kun o'tkazmaydi;

Inson kuniga 70 marta, ya'ni har 15 daqiqada telefonini tekshiradi;

Gadjetlarga qaram bo'lgan odamlarning miyasidagi biokimyoviy o'zgarishlar g'yohvandlik davridagi o'zgarishlar bilan bir xil.

Olimlar kam harakatlilik, xususan, uzoq muddat stulda o'tirish yurak-qon tomir kasalliklari va erta o'lim havfini oshirishini isbotlashdi.

Izlanishda yuz mingdan ortiq 35 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan insonlar qatnashdi. Ularni 11 yil

davomida kuzatishdi. Aniqlanishicha, kuniga 6 soatdan 8 soatgacha o'tirib ishlagan insonlarda erta o'lim havfi va yurak kasalliklari uchrashi 12-13% ga yuqoriligi aniqlandi. Kuniga 8 soatdan ko'p «o'tiruvchi»larda esa bu havf 20% ni tashkil etadi.

Chekish qon tomirlarining torayishi va arterial bosimning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Sigaretdan voz kechgandan 24 soat o'tib, miokard infarkti xavfi pasaya boshlaydi, yurak va qon tomirlari me'yorda ishlashi tiklanadi.

Sigaret tarkibidagi nikotin va boshqa kimyoviy moddalar asab tizimiga zarar yetkazishi tufayli insonda ta'm va hid sezish qobiliyati yomonlashadi. Chekishni tashlagan odamda 48 soatdan keyin bu hislar yaxshilanadi.

Nikotin va boshqa toksinlar bronxlarda spazmlar keltirib chiqarib, nafas olish tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 72 soat ichida bronx mushaklari bo'shashib, nafas yo'llari shilliq va boshqa ifloslanishlardan tozalanadi.

2-12 hafta ichida tamakidan voz kechgan insonda qon aylanishi va o'pka faoliyati yaxshilanadi. Bu esa organlar va to'qimalarning kislorod va ozuqa moddalari bilan to'yinishiga xizmat qiladi. 3-9 oy o'tib, yo'tal va nafas qisishi kamayadi.

1 yildan keyin yurak ishemik kasalligiga chalinish xavfi ikki barobarga kamayadi. Chekish insul'tning asosiy sabablaridan biri ekanligi sir emas. Sababi u qon tomirlarning torayishiga olib kelib, tromb hosil bo'lish ehtimolini oshiradi. Bu zararli odatdan voz kechgan odamda 5 yildan so'ng insul't xavfi chekmaydiganlar darajasiga tushadi.

Chekishni tashlash kanserogenlar ta'sirini kamaytiradi va hujayralarning tiklanishiga yordam beradi — 10 yildan so'ng o'pka saratoni xavfi chekuvchilarga qaraganda ikki barobarga kamayadi. Buning natijasida og'iz bo'shlig'i, tomoq, oshqozon raki ehtimoli ham pasayadi.

15 yil o'tib, yurak ishemik kasalligi va miokard infarkti xavfi chekmaydiganlar darajasiga qaytadi. Yurak va qon tomirlari chekish oqibatida yetkazilgan zarardan to'liq tiklanadi. Arterial gipertenziya, ateroskleroz va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari xavfi kamayadi.

I.ABDUJABBOROV.

FAKT- RAQQAMLARDA

USHBU SAHIFADA: INSTITUTNING MALAKALI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, TALABALARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI YORITIB BORILADI.

"SOG'LOM HAYOT" SAHIFASI



BU MAQOLA SIZ UCHUN EMAS, AGAR...

... SIZ ERTALAB YUGURSANGIZ, SPORT ZALLARIGA BORISHGA ODATLANGAN BO'LSANGIZ VA DAM OLISH KUNLARINI SAYRDA O'TKAZSANGIZ.



Shohrux AXMADALIEV,
shifokor kardioreanimatolog,
institut assistenti.

«Hech ikkilanmay ayta olaman hozirgi davrda bunday insonlar juda kam».

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib borilgan o'rganishlar bo'yicha aholining qariyb 60 foizi sport bilan shug'ullanmaydi va harakatsiz turmush tarzini olib boradi. Bu XXI asrda sivilizatsiya kasalliklari, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

JISMONIY FAOLLIKNING ETISHMASLIGI YURAK KASALLIGIGA OLIB KELADIMI?

O'zbekistonda 2023-yilda ro'yxatga olingan o'lim sabablarining 61,1 foizini qon aylanish tizimi kasalliklari tashkil etgan. Bu birinchi navbatda, noto'g'ri ovqatlanish va jismoniy faoliyatning etishmasligi bilan bog'liq.

Muntazam jismoniy mashqlar, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimining ishlashi sharoitida tanaga juda foydali ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy faollik paytida yurak va qon aylanish tizimi eng muhim rollardan birini o'ynaydi. Buning yordamida mehnatsevar mushaklar kislorod bilan ta'minlanadi. Yurak urishi tezlashadi, qon kislorod bilan to'yingan va tananing termoregulyatsiyasiga yordam beradi.

YURAKNI SOG'LOM SAQLASH UCHUN QANCHA MASHQ QILISH KERAK?

Yurak mushak a'zodir va uning ishlashi uchun doimiy faoliyat talab etiladi. Muntazam jismoniy mashqlar uni kattaroq, kuchliroq va samaraliroq qiladi, nasos vazifasi yaxshilanadi. Harakatlar qonda qand miqdorini normallashtiradi. «Yomon» xolesterin miqdorini kamayadi va «yaxshi» xolesterin miqdorini ortishiga yordan

beradi. Arterial qon bosimi normallashtadi.

JSST yurak xastaligi xavfini 30 foizga kamaytirish uchun haftasiga 150 daqiqa (2,5 soat) jismoniy faollik zarurligini ko'rsatadigan tadqiqotlarini e'lon qildi.

Agar inson jiddiy yurak qon-tomir kasalliklaridan aziyat chekayotgan bo'lsa, yurak muammosi bo'lgan odamlar jiddiy sportga emas, balki jismoniy tarbiyaga muhtoj.

Agar sizning shifokoringiz sizga jismoniy harakatlarni butunlay cheklagan bo'lsa demak sizda jiddiy xastalik bo'lishi mumkin. Odatda bunday xastaliklar o'tkir miokard infarkti, o'tkir yurak yetishmovchiligi, yuqori darajadagi surunkali yurak yetishmovchiligi, yuqori darajadagi klapan muammolari bo'lishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda asosiy dominant kasallik konservativ yoki operativ davolanadi. Olib borilgan reabilitatsion muolajalardan so'ng shifokor ko'rsatmasiga binoan harakatlar intensivligini amalga oshirishingiz mumkin.

JISMONIY HARAKATLAR VAQTIDA YURAK SOHASIDA OG'RIQ VA HANSIRASP PAYDO BO'LSA...

Bunday holatda siz harakatlanishdan to'xtang va dam oling. Sizda zo'riqishdagi stenokardiya bo'lishi mumkin. Siz kardiologga uchrashingiz va maxsus chek up dan o'tishingiz kerak. Tredmil test sizdagi yashirin stenokardiyaning organizmingizni jismoniy harakatlarga bo'lgan javob kuchini aniqlab beradi. Tekshiruv xulosalaridan so'ng sizga qanday intensivligidagi harakatlar to'g'ri kelishi oydinlashadi.

TREDMIL TEST

Qanday jismoniy harakatlar yurak uchun foydali?

Har qanday intensivlikdagi va davomiylikdagi yurish foydalidir. Yurak-qon tomir kasalliklari bilan

og'rigan o'qitilmagan odamlar uchun tezlikni va masofani asta-sekin oshirib, sekin sur'atda 10 daqiqalik yurishdan boshlash muhimdir. Miokard infarktidan so'ng, engil charchoq holati ko'rsatilguncha sekin yurish zarur.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan odamlarning jismoniy tayyorgarligi minimal faollik bilan ham sezilarli darajada yaxshilanadi. O'tirgan turmush tarzidan kuniga 10-15 daqiqa piyoda yurishga o'tish yurak-qon tomir tizimining yaxshilanishiga olib keladi. Haftada 5 kun, kuniga 30-60 daqiqa o'rtacha yuring yoki yengil yugurishga odatlaning.

Muntazam ravishda mashq qiling. Har kuni tushlik paytida piyoda yurish, yiliga bir marta marafonda yugurishdan ko'ra foydaliroqdir. Har kuni engil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan bemorlarda stenokardiya belgilari kamroq bo'ladi va yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfi kamayadi. Kardiojarrohlarning bilishadi: bemor qanchalik ko'p harakat qilsa, miokard infarkti yoki insultdan tiklanish tezroq va osonroq bo'ladi.

YUKNI ASTA-SEKIN OSHIRING.

Yukning intensivligi oddiygina aniqlanadi: mashq qilayotganda siz suhbatni bemalol davom ettirishingiz kerak. Agar nafas qisilishi paydo bo'lsa, yuk juda yuqori, sekinlashtiring.

Ogohlantirish belgilarini e'tiborsiz qoldirmang, «men qila olmayman» orqali mashq qilmang. Agar sizda bosh aylanishi, xira ko'rish, ko'krak yoki orqada og'riq, qo'llarda sezuvchanlik yo'qolishi, nafas qisilishi yoki «yuragingiz sakrab chiqayotgandek» hissiyot paydo bo'lsa, mashqni to'xtatishingiz kerak. To'xtang, o'rindiqqa o'tiring, nafas oling, suv iching. Agar kerak bo'lsa, yordam so'rang.



Viloyatda nima gaplar?

BOLALAR BEPUL TIBBIY KO'RIK O'TKAZILDI



Yaqinda Turkiyaning Acibadem Taksim klinikasi mutaxassislari terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari va boshqa tashxislar bilan og'rig'an 40 nafar farg'onalik bemor bolalarni bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar.

Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida tashkillangan mazkur ko'rik natijasiga ko'ra, 10 nafar bemor "Acibadem" shifoxonasida davolanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

TURKIYADA TAJRIBA ALMASHILDI



Beshariq tumanida shifokorlarning bilim va tajribasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yaqinda tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Laziz Jo'raev boshchiligidagi 10 nafar shifokor va hamshiralardan tashkil topgan guruh Turkiya davlatining Anqara shahriga o'zaro tajriba almashish uchun bordilar. U yerda turli uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etiladi.

Ular Anqara universitetining Ibn Sino, Sebeci va Zekay Tohir Burak nomidagi ayollar salomatligi va tadqiqot shifoxonalari bo'lishib, tajribali mutaxassislar bilan birga o'zaro bilim va ish tajribalarini almashadi.

Xabaringiz bo'lsa, joriy yilning mart oyida 10 nafar beshariqlik shifokorlar 6 kun davomida Belorussiyada bo'lishib, tajriba almashib qaytgan edilar.

VODIYLIK UROLOGLAR FARG'ONADA...



Farg'ona vodiysi urologlarining navbatdagi ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali majlislar zalida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar jam bo'lishdi.

Ular "Emfizematoz pielonefrit", "Qovuq o'smalarini davolashda kaminvaziav operatsiyalarni qo'llanilishi", "Qandli diabet kasalligida erektil disfunktsiya" kabi mavzular bo'yicha taqdimot va muhokamalar o'tkazishdi.

—Mazkur anjumanda urologik kasalliklarining profilaktikasi va davolash, zamonaviy usullarda tashxis qo'yish bo'yicha oldimizda turgan vazifalar, muammolar to'g'risida fikr almashdik, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filiali direktori Azizbek Yuldashev. —Bu yerda yangi bilim va tajriba orttirib, yangiliklardan boxabar bo'ldik.

Konferensiyani Vodiy urologlari assosiasiyasi raisi Davlatjon Abdullaev, Andijon viloyati bosh urologi Ulug'bek Rustamov, Namangan viloyati bosh urologi Sayfitdin Mamadaliev va Farg'ona viloyati bosh urologi Azizbek Yuldashevlar olib bordilar.

SO'XDA YANGI TIBBIYOT PUNKTI OCHILDI



Hushyor mahallasida yana bitta yangi tibbiyot punkti faoliyat yuritadigan bo'ldi.

So'x tumanidagi Hushyor mahallasi hudud jihatdan yirik fuqarolar yig'ini hisoblanadi. Aholi talab va istaklarini inobatga olgan holda tashkil etilgan mazkur yangi tibbiyot punktida 6 nafar tibbiyot xodimi faoliyat olib boradi.

—Mazkur shifo maskani 3 000 nafar aholiga xizmat ko'rsatadi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Sanjar Ismoilov. —Kunduzgi muolaja jarayonidan bir vaqtda 7 nafar fuqaro bahramand bo'lishi mumkin.

Tadbirda tuman hokimligi, ichki ishlar bo'limi, mahalla nuroniylari va yoshlar ishtirok etdi.

"EZGULIK MANZILI"



Farg'onada "Ezgulik manzili" xayriya aksiyasi o'tkazildi. Bolalarni qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan joriy yilning 9-14 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatida ehtiyojmand, kam ta'minlangan, og'ir sharoitga tushgan oilalardagi bemor bolalarga konsul'tativ va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida navbatdagi "Ezgulik manzili" xayriya aksiyasi o'tkaziladi.

Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida boshlangan mazkur aksiyaga Respublika bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 22 nafar mutaxassislari jalb etilgan.

Shuningdek, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining nefrologi Dilorom Keldiyarova va gastroentrolog Hilola Ubayxo'jaevalar shifoxonada davolanayotgan 20 nafar bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.

QURILISH ISHLARI YAKUNIGA YETMOQDA



Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona viloyat mintaqaviy filialida yangi qurilayotgan poliklinikada bo'ldi. Bu yerda pardoqlash ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

X.Bozorov mutaxassislarga qurilish ishlarini to'liq va sifatli yakunlash, jihozlash ishlarini tezlashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Zamonaviy tibbiy jihozlarni, xususan, MSKT uskunasi o'rnatish borasida vazifalar topshirildi.

UZUMZOR MAHALLASIDA TIBBIYOT PUNKTI ISH BOSHLADI



Qo'qon shahridagi Uzumzor mahallasida yangi tibbiyot punkti foydalanishga topshirildi. Mazkur shifo maskani zarur tibbiy jihoz va uskunalar bilan ta'minlandi. Unda 1 nafar oilaviy shifokor, 1 nafar amaliyotchi hamshira, 2 nafar patronaj hamshira va doya faoliyat olib boradi.

—Uch ming nafar aholi istiqomat qilayotgan hududda shunday tibbiyot punktiga anchadan buyon ehtiyoj bor edi, —deydi shahar tibbiyot birlashmasi boshlig'i Komil Sirojiddinov. — Uzumzorliklar borishi kerak bo'lgan birlamchi tibbiyot muassasasi 17-Kalvak mahallasida joylashgan bo'lib, oradagi masofa qariyb 5 kilometrni tashkil etardi. Shu boisdan ham 8-oilaviy poliklinikaning filiali sifatida ish boshlagan tibbiyot punkti ochilishini mahalla ahli xursandchilik bilan kutib oldi.

RISHTONDA ZAMONAVIY POLIKLINIKA ISH BOSHLADI



Rishton tumani "Yangi Bo'jay" mahallasidagi 24 ming nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadigan 46-sonli oilaviy poliklinika binosi mukammal ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Bunyodkorlik ishlariga 2 mlrd 700 mln so'm mablag' sarf etilib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi.

I.ABDUJABBOROV.

Yangilik

DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI:

KAFOLATLANGAN
PAKET VA IMTIYOZLI
TOIFALAR

Prezidentning "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-311-sonli qarori mamlakat sog'liqni saqlash tizimida tub islohotlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Ushbu qaror bilan davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar tizimini joriy etish, tibbiy sug'urta orqali aholiga moliyaviy yengillik yaratish va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlar yo'lga qo'yiladi.

Mazkur qarorning asosiy jihatlari to'xtalib o'tamiz.

Bepul tibbiy xizmatlar va
dori vositalari ta'minoti

Qarorga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi va dori vositalari taqdim etiladi. Ushbu xizmatlar va dorilarni ta'minlashda aholining yelkasiga qo'shimcha moliyaviy yuk yuklanmaydi, ya'ni sug'urta uchun qo'shimcha to'lov undirilmaydi. Xizmatlar va dorilar soliq to'lovlaridan shakllangan davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi, bu

esa sug'urtalangan shaxslarning tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Tibbiy sug'urta
mexanizmi bosqichma-
bosqich joriy etiladi

Qarorda tibbiy sug'urta mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilgan. Ushbu mexanizmlar orqali aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari belgilanadi. Bular davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan va sug'urta jamg'armasi mablag'lari orqali taqdim etiladigan tibbiy xizmatlar hamda dori vositalarini o'z ichiga oladi.

Elektron tizimlar va
zamonaviy xizmat
ko'rsatish

Aholining bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi uchun belgilangan muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tish, oilaviy shifokorga yoki tibbiyot brigadasiga murojaat qilish talab etiladi.

Shuningdek, dori vositalari shifokor rasmiylashtirgan elektron retsept asosida beriladi va ushbu xarajatlar sug'urta jamg'armasi tomonidan qoplanadi. Bu reimmersatsiya dasturida amalga oshirilib, moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Qarorda "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimini joriy etish nazarda tutilgan bo'lib, ushbu tizim tibbiy muassasalar faoliyatini elektron shaklda boshqarish imkonini beradi. Bu raqamlashtirish sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamdir.

Kafolatlangan paket va
imtiyozli toifalar

Qaror asosida davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari tibbiy xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etadi. Bu esa davlat va xususiy sektorning tibbiyot sohasidagi hamkorligini kuchaytirib, aholining keng qamrovli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlariga ko'ra, tuman viloyat va respublika shifoxonalarida kasallikning og'irlik darajasiga qarab bepul davolanadigan kasalliklar ro'yxati tasdiqlanadi va amaliyotga joriy etiladi. Shuningdek, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar shifokor ko'rsatmasiga binoan axborot tizimi orqali shakllantiriladigan yo'llanma asosida davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul davolanadi.

Rejalashtirilgan
o'zgarishlar

2025-yil 1-iyuldan e'tiboran davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda rejalashtirilgan statsionar tibbiy yordamdan elektron navbat asosida bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ushbu imtiyoz jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq to'lovchilar, soliq kodeksiga muvofiq mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun belgilangan miqdorlarda soliq to'lagan shaxslar, shuningdek, voyaga yetmaganlar, talabalar, ishsizlar, homilador ayollar, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar parvarishi bilan shug'ullanuvchilar va davlat pensiyasi oluvchilar hamda kam ta'minlangan oilalarning a'zolari uchun amal qiladi.

2027 yil uchun
belgilangan yirik
islohotlar

2027 yil 1 yanvardan boshlab, davlat tibbiy sug'urtasi tizimida kamida 6 oy davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq to'lagan shaxslar yuqori texnologiyalik tibbiy yordamdan bepul foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimidagi moliyaviy yukni kamaytirishga qaratilgan muhim chora bo'lib, zamonaviy tibbiy xizmatlardan keng foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.



Xulosa qilib aytganda, mazkur qaror O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini zamonaviylashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'lib, aholiga tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu islohotlar mamlakat sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umidjon QURBONOV,
O'Z

JAMOAT
SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOROV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmiroz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 27.09.2024 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma: Adadi: 500